



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 11 2023 YIL 28 NOYABR

18 noyabr – O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun

## HURLIK VA EZGULIK RAMZI

**Davlat ramzlaridan biri bo'lgan bayroq – bizni ulug' maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash'ala deb aytish mumkin. U o'zida butun O'zbekiston xalqining asriy orzu-istaklari, g'ayrati va shijoatini, xalqimizga xos mehmondo'stlikni mujassam etgan.**

Qadim-qadimdan har bir xalq uchun mustaqillik, hurlik, tinchlik va barqarorlik timsoli bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham dunyo mamlakatlaridagi ko'plab elchixonalar binolari, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida O'zbekiston ramzi sifatida bayrog'imiz hilpirab turadi.

Boshqa davlatlarda yurtimiz bayrog'i ko'tarilganida, xorij safarlarida, o'zga davlatlar hududida O'zbekistonimiz bayrog'ini ko'rganimizda, nufuzli

xalqaro sport anjumanlarida mamlakatimiz bayrog'i hilpiraganida odamning qalbi allanchuk bo'lib ketadi.

Vatan hissini yurakdan tuygan har bir inson borki, yurt bayrog'ini muqaddas bilib, uning hurmat va sharafini chin qalbdan e'zozlaydi. Zero milliy bayrog'imiz – mamlakatimiz suverenitetining oliy ramzi bo'lib, xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli sifatida namoyon bo'ladi.



Milliy bayrog'imiz 1991 yil 18 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida, «O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i to'g'risida»gi qonuni bilan qabul qilingan edi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan

mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shonshuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

(Davomi 2-betda)

## YUKSAK E'TIROF

**Toshkent shahar hokimligida Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan tadbir o'tkazildi.**

Tadbirda Sog'liqni saqlash vaziri Amrullo Inoyatov ishtirok etib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga asosan davlatimizning yuksak orden va medallariga sazovor bo'lgan tibbiyot xodimlarini qizg'in muborakbod etdi.

O'z o'rnida hukumatimizning bunday e'tirofiga loyiq deb topilgan shifokorlarimiz xalqimiz salomatligini mustahkamlash yo'lida bor bilim va malakalarini ishga solib ishlash, Yangi O'zbekiston tibbiyot tizimini zamonaviy sifat

bosqichiga olib chiqishda bundan keyin ham astoydil harakat qilajaklarini bildirdi.

Xususan, Toshkent tibbiyot akademiyasi professori, II darajali "Salomatlik" ordeni sohibi Murod Karimov ko'rsatilyotgan cheksiz g'amxo'rlik va e'tibor uchun barcha tibbiyot xodimlari nomidan davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiligini bildirib, barcha tibbiyot xodimlarini bayram bilan tabrikladi.



Hikmat



Salomatlik inson uchun eng ulug' ne'mat.



Hikmat

18 noyabr – O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilingan kun

## HURLIK VA EZGULIK RAMZI

(Boshi 1-betda)

Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg‘uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsoli.

Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar – vujudimizda jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

Sohibqiron Amir Temur davrida ham davlat bayrog‘i katta ijtimoiy-siyosiy,

ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyat kasb etgan. “Temur tuzuklari”da keltirilishicha, dushman ustidan shijoat va mardlik ko‘rsatib, g‘alaba qozongan amirlar va sipohiyalar davlat timsollari – bayroq va nog‘ora bilan mukofotlanganlar. Bu Sohibqiron saltanatida davlat ramzlari nechog‘lik qadrlanganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i barchamizning g‘ururimiz va faxrimizdir. Davlat ramzlarini hurmat qilmay turib, biz o‘z xalqimizning millat sifatidagi o‘rnini, O‘zbekistonning butun jahon mamlakatlaridan biri, tenglar ichra teng ekanligini idrok qila olmaymiz.

Mag‘rur hilpirayotgan bayrog‘imiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-obodlik, millatlararo totuvlik, qut-bara-

ka, biz erishayotgan bemisl yutuqlar va kelajakka bo‘lgan mustahkam ishonch ramzi sifatida qalbimizga tunganmas iftixor bag‘ishlaydi.

O‘shib kelayotgan yosh avlod qalbida bayroqqa hurmat ostida – Vatanga mehr-muhabbat tuyg‘ulari shakllanadi. Eng muhimi, bola ota-ona bilan bayroqqa birdek mehr qo‘yib voyaga yetadi, ota-onasiga qanday sadoqatli bo‘lsa, bayroqqa, Vatanga ham shunday sadoqatli bo‘ladi.

Musaffo osmonimiz uzra doimo hilpirayversin.

**Hamidulla MAGZUMOV,**  
dotsent,  
**Ilmira IMOMOVA,**  
katta o‘qituvchi

## MUNOSIBLAR E‘TIROF ETILDI

**O‘zbek musiqali drama teatrida Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy-pedagogik jamoasi mamlakatimizda an‘anaviy tarzda nishonlanib kelinayotgan shifokorlar kuni bayrami munosabati bilan ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi.**



Tantanali kecha chinakkam bayram tusini olib, tadbirda munosiblar e‘tirof etildi. O‘zbek musiqali drama teatri jamoasi va kamer orkestr ijrosidagi jonli ijro barchaga manzur bo‘ldi.

Tig‘, giyoh, kalomda baxtu saodat,  
Shul uchlik shifokor ahliga odat.  
Shunda ezgulikning bebaho kaliti,  
Shunda hayot, shunda abad, oxirat...

**Gulchehra MIRZAYEVA,**  
TTA matbuot xizmati rahbari



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI XALQARO E‘TIROFGA SAZOVOR BO‘LDI

**Malayziyada o‘tkazilgan “QS Higher Education Summit Asia Pacific – 2023” sammiti doirasida Osiyoning eng yaxshi oliy o‘quv yurtlari reytingi aniqlandi.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi O‘zbekistondagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari ichida birinchilardan bo‘lib “QS Star Very Good 4” yulduzli oliy ta‘lim muassasasiga aylandi.

“QS Stars” reytingi keng qamrovli va jahon miqosida e‘tirof etilgan baholash tizimi bo‘lib, u turli sohalardagi universitetlarni ularning faoliyati haqida umumiy tasavvurni

taqdim etish uchun baholaydi. U universitetlarni bir necha muhim yo‘nalishlar, jumladan, o‘qitish sifati (5 yulduz), ishga joylashish (5 yulduz), tadqiqot (4 yulduz), xalqaro hamkorlik (3 yulduz), qulayliklar (3 yulduz), innovatsiyalar, inklyuzivlik va boshqalar asosida baholaydi.

**Sog‘liqni saqlash vazirligi**  
Matbuot xizmati



## O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirishda axborot-tibbiyot texnologiyalari va fan yutuqlarini joriy etish hukumatimizning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Aholiga tibbiy yordam ko'rsatish darajasi va tezligini oshirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalardan foydalangan holda shifokorlar tomonidan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish, aholiga yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish, tibbiyot muassasalariga yuqori texnologiyali asbob-uskunalar joriy etilishi munosabati bilan shifokorlarning malaka darajasini ta'minlash, tibbiyot kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, biotibbiyot muhandislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish kiradi.

So'nggi yillarda Respublikamizda yuqorida qayd etilgan sog'liqni saqlash sohasidagi muammolarni hal etish, ularni tushunadigan, ekspluatatsiya qila oladigan, zarur ta'mirlash, sinov va ko'rikdan o'tkaza oladigan mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijdan juda ko'p miqdorda tibbiy mahsulotlar keltirilmoqda. Bundan tashqari, yangi tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarish dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu muammoning dolzarbligi yuqori darajadagi muhandislarga – biotibbiyot, texnik va kompyuter bilimlariga ega biotibbiyot mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shu maqsadda Toshkent tibbiyot akademiyasida ham "Biotibbiyot muhandisligi" yo'nalishi ochilib, mana uch yildan beri unda bakalavr yo'nalishidagi talabalar tahsil olmoqda. Keyingi bosqichda ular o'z bilimlarini magistratura bosqichida rivojlantirish imkoniyatiga egadir.

"Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika" kafedrasida TTA bosh o'quv binosining 7-qavatida joylashgan bo'lib, u yerda bo'lajak biotibbiyot muhandisligi sohasi egalarining bilim olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Talabalar biomexanika, optika, materialshunoslik, mikroprotsessorlar fizikasi, nanotexnologiyalar kabi dolzarb, shu bilan birga murakkab bo'lgan fanlardan bilim oladi. Kafedra texnoparkida turli mikroskoplar, fotoelektrokolorimetrlar,

monitoring va davolashni yaxshilash uchun yangi va innovatsion texnologiyalarga murojaat qildi. Bunda tibbiyot xodimlari malakali biotibbiyot muhandislarini tomonidan ishlab chiqarilgan tejamkor va samarali boshqariladigan tibbiy asboblarga va implantlarga tayanishi kerak.

Kafedra o'qituvchilarining maqsadi tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda ish sohasida texnik va nazariy ko'nikmalarni mustahkam uyg'unlashtirgan bitiruvchilarni tayyorlashdan iborat. Biotibbiyot

muhandisligi profili elektronika, mexanika, informatika, material muhandisligi yoki telekommunikatsiya kabi turli xil muhandislik sohaslarida bilimlarni namoyish etadi, tibbiyot va biotibbiyot sohasi uchun vositalar va mahsulotlar yaratishga intiladi.

Biotibbiyot muhandisligining maqsadlari juda xilma-xildir, rentgenografik tasvirdan tortib, inson genomini tahlil qilishgacha deyish mumkin. Biotibbiyot muhandislarini biologik tadqiqotlar, inson kasalliklari diagnostikasi, tiklanish jarayonlari va profilaktikasi uchun turli tibbiy vositalarni qo'llash usullarini o'rganadi. Bu esa Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun zarur va muhim masala hisoblanadi.

**M.BAZARBAYEV,**

**TTA "Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika" kafedrasini mudiri,**

**U.ABDUJABBAROVA,**

**shu kafedra katta o'qituvchisi**

### BIOTIBBIYOT MUHANDISLARI INSONLAR SOG'LIQ'INI SAQLASH TIZIMI XIZMATIDA

EKG-apparati, biokimyoviy analizatorlar, 3-D printer kabi qurilmalar, laboratoriya ishlarini amalga oshirish uchun turli asbob-uskunalar mavjud. Shu kunlarda ultratovush va rentgen diagnostikasi apparatlarini olish rejalashtirilgan. Hozirda talabalar qurilmalar va ularning elementlari, ishlash prinsiplari bilan tanishishmoqda, keyingi bosqichda qurilmalarga birlamchi servis xizmatlari ko'rsatishni o'rgatish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Wi-Fi zona, zamonaviy kompyuterlar, elektron kutubxona ham talabalarga mukammal bilim olish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash xizmatlariga talab jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda, shu sababli sog'liqni saqlash tizimi diagnostika,



## XALQARO ANJUMAN ONA VA BOLA SALOMATLIGIGA BAG'ISHLANDI

**Toshkent tibbiyot akademiyasida "Zamonaviy pediatriyaning dolzarb muammolari, bolalar kasalliklari diagnostikasi va davolashning yangi imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo`lib o`tdi.**



Anjuman dolzarb masalaga bag'ishlangan. Chunki mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida onalar va bolalar kasalliklari profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va sog'lomlashtirish dasturlari amaliyotga joriy etilmoqda. Sog'lom farzand tug'ilishi, rivojlanishi va tarbiyasi masalalari bo'yicha tushuntirish ishlari kuchaytirilyapti.

Bolalar, homilador hamda emizikli ayollar vitamin va minerallar bilan bepul ta'minlanib, maqsadli skrining tadbirlari orqali kasalliklarning samarali profilaktikasi olib borilmoqda. Muhimi,

erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolinmayapti. Bolalarga xizmat ko'rsatishda uchrayotgan kamchilik va muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda.

Konferensiyadagi ma'ruzalar davomida O'zbekistonda islohotlar bosqichida bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirishda hal etiladigan masalalar, pediatriya xizmatini yanada rivojlantirish, pediatriya rivojida xalqaro hamkorlik ahamiyati xususida so'z bordi.

Shuningdek, bolalarga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, perinatal tibbiyot, genetik va immunitet tanqisligi kasalliklari bo'lgan bolalarni tashxislash, davolash, reabilitatsiya qilish hamda jismoniy va psixosotsial rivojlanishdan orqada qolgan yoki buning

xavfi bor bolalarga erta yordam berish masalalari muhokama qilindi.

Qolaversa, bolalarning jismoniy rivojlanishi, ularni ko'krak suti bilan boqish va to'g'ri ovqatlantirish hamda mikronutrient yetishmovchiligining oldini olish va bartaraf etishga doir masalalar kun tartibida bo'ladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi va respublikadagi laborator-instrumental imkoniyatlar va ulardan foydalanish masalalari, sog'lom hayot tarzi, bolalar va o'smirlar reproduktiv salomatligi, bolalar kasalliklarining oldini olish, bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash masalalarini ko'rilishi rejalashtirilgan. Bularning barchasi pediatriya sohasining dolzarb masalalaridir.

TTA Axborot xizmati

## TALABA-YOSHLAR ISHTIROKIDA DAVRA SUHBATI



**Toshkent tibbiyot akademiyasida "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" mavzusida talaba-yoshlar ishtirokida davra suhbati bo'lib o'tdi.**

"Yoshlik" talabalar shaharchasi hokimi Sh.Nabiyev hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi yoshlar masalalari, ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori T.Bobomurotov yoshlar shijoati, g'ayrati ularning yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi haqida so'zlab o'tishdi. Ilm-fan va kasb-hunar sirlarini o'rganishga astoydil harakat qilayotgan yoshlar e'tirof etildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keyingi yillarda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratilganligi, yoshlar faoliyatiga doir muhim qaror va farmonlar, qonunlar qabul qilinayotgani aynan ular tashabbuskorligiga qaratilayotgan yuksak e'tiborning namunasi ekanligini aytilib, bu boradagi takliflar eshitildi.



1 dekabr – Butunjahon OITSGa qarshi kurash kuni

## OITS VA JAMIYAT ILLATLARINING UYG‘UNLIGI

**“Tan xastalıkları bo‘lganidek turmush tarzining ham kasallıkları bo‘ladi”, degan edi tibbiyotning otasi Gippokrat.**

U mazkur fikrni albatta bevosita o‘zini o‘limga hukm etgan odamlarining nazarda tutmasdan, balki ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, toksikomanlik, mechkaylik, shahvatparastlik botqog‘iga botib, muqarrar xastalıklar, muhtalolıklar, o‘limga yuz tutgan kimsalarni ham nazarda tutgan.

So‘nggi yillar statistikasi bu borada juda qayg‘uli: Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining bergan ma‘lumotlariga qaraganda yer shari aholisining 15 foizga yaqinida qandaydir stimullovchi moddaga qaralik kasalligi bo‘lib, shular orasida narkomaniya 7-8 foizni tashkil qiladi. Bu har 12 nafar odamdan bittasi deganidir. Afg‘oniston, Kongo, Paragvay kabi davlatlarda giyohvandlik giyohlari tobora ko‘proq ekillayotgani ham jahon afkor ommasiga sir emas. Bugungi kunda Gollandiya, Fransiya kabi davlatlarda giyohvandlik vositalar baayni bizdagi sigaret va nos kabi legallashtirilgan bo‘lib, Gollandiyada hatto narkokafelar ham mavjud. Bunday muassasalarda narkomanlar bepul bir martalik shpritslar va narkotik vositalar bilan ta‘minlanadi. Amerikada ham 2014 yilga kelib mariyuana legallashtirilgan. Bu dalillar insoniyat tobora tubanlik domiga tortilib ketayotganligidan bir darak.

Mustaqil diyorumizda esa bu borada juda katta islohotlar o‘tkazilayotganligi quvonarli. Chunki qusurning katta-kichigi, jinoyatning kabir va sag‘iri va nuqsonning og‘ir-yengili bo‘lmaydi, jamiyat, insoniyat, dinu diyonatga zid har qanday faoliyat – qabohatdir. Oddiy sigaret yoki nos chekishdan boshlangan ishqibozlik aksariyat hollarda piyonistalik va giyohvandlik kabi ortga qaytib bo‘lmas ko‘chalarga yetaklab kiradi. Bugungi kunda 20 yoshga yetmagan o‘smirlar va bolalarga tamaki mahsulotlari va spirtli mahsulotlar sotilishini taqiqlanishi, tungi barlar soni kamaytirilishi, zararli mahsulotlar narxining bir necha barobar qimmatlashtirilishi, oliy o‘quv yurtlari, bolalar muassasalari atrofida bunday mahsulotlar sotilishining man etilishi o‘ylaymizki, ularni jannatmakon yurtimizda batamom taqiqlanishi yo‘lidagi ilk qadamdir.

Narkomanlar eng ko‘p iste‘mol qiladigan giyohvand moddalarga mariyuana, gashish, tamarhindi, kat va ulardan olinadigan kokain, heroin kiradi. Dori vositalari orasida esa morfin, omnoyon, buprenorfin, metadon, dekstrametarfon, etilmorfin, kodein, psixostimulyatorlar, tarkibida opiatlarni saqlovchi yo‘talga qarshi dorilar, alkogol bilan qo‘shilganida narkotik samara beruvchi vositalar, antixolinergik moddalar, barbituratlar, benzodiazepimlar kiradi. So‘nggi yillarda vayron qituvchi quvvati geroingga

nisbatan 25 barobar kuchli bo‘lgan LSD, 40 barobar tezroq o‘limga olib keluvchi ekstazi kabi sintetik narkotiklar qora bozorni shiddat bilan to‘ldirib bormoqdaki, insoniyat baayni porox bochkasi ustida papiros chekayotgan kashandaning ahvoliga tushib qoldi. Daromad keltirishi bo‘yicha narkotiklar savdosini qurulyarog‘, odam va dori-darmon savdosidan keyingi sharaflı 4 o‘rinni mustahkam tutib turibdi. Shifokor qaysi jabhada ishlamasin o‘z faoliyati mobaynida narkoman bilan to‘qnash kelishi mumkin. Ularda B, C, D gepatitlar, OITS sindromi, turli infeksiyon kasalliklar bo‘lish ehtimolini, badanida ineksiya izlari, turli tan jarohatlari, chandiqlar

qadimiy illatlardan biri – narkomaniyaga qarshi kurash barcha zamon va makonlarda qattiq bo‘lgan. Asri saodatda ularga kaltak urish, qadimiy Rimda tog‘ cho‘qqisidan tashlab yuborish, fashizm zamonasida esa krematoriyalarda tiriklay kuydirish ham illat ildiziga bolta urolmagan.

Har yili dekabr oyida xalqaro OITSGa qarshi kurashish kuni o‘tkaziladi. Bugungi kun statistikasiga ko‘ra ro‘yi zaminda mazkur baloga muhtalo bo‘lganlar soni 38 milliondan oshgan va bu ko‘rsatkich tobora yuqorilab bormoqda. Bemorlarning va tashuvchilarning 89,6 foiz qismida yuqorida qayd etib o‘tilgan illatlar – jamiyat xastalıkları kuzatilgan.



va turli spesifik alomatlar qo‘shilib kelishi mavjudligini e‘tibordan qochirmasligi kerak. Masalan, kannabis qabul qiluvchilarda ko‘z qizarishi, opiatlarda qorachiqlar torayishi, amfetaminlar qabul qiluvchilarda qon bosimi oshishi, giperkinezlar kuzatilishi mumkin. Bemorlarning aksariyatida asta-sekinlik bilan insoniylik qiyofasi yo‘qolishi, shaxs sifatida tanazzulga yuz tutish, o‘rinsiz tajovuzkorlik, besabab tushkuntlik, yo‘q narsalarning ko‘zga ko‘rinishi va eshitilishi, suitsidial fikrlar oqibatida o‘zini osib qo‘yish yoxud biroyni shikastlab qo‘yish hollari ko‘p uchraydi. Davo natijalarining statistikasi yanada qayg‘uli. Gashish, mariyuana, kokain kabi nisbatan yengilroq narkomaniya turlarida batamom tuzalib ketish 22-29 foizni, heroin, LSD va ekstazida esa bor-yo‘g‘i 3-7 foizni tashkil qiladi. Demakki narkomanlarning har 5-13 tadan bittasininga sog‘lom hayot quchoqiga qaytarish mumkin. Tarixi Injilda ham bitilgan

Ularga qarshi kurashilmas, sabablar bartaraf etilmas ekan, OITSGa qarshi kurashish besamarligicha qolaveradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, faqat jismoniy tarbiya va sportni betinim targ‘ib qilishimiz, muqaddas dinimiz asoslaridan, tibbiy ma‘rifat va ma‘naviyatlardan ko‘proq targ‘ibot va tashviqot qilishimiz, farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya berish bilan jamiyatga zid, axloqqa teskari, dinimizga yot bo‘lgan giyohvandlik, kashandalik, piyonistalik, mechkaylik, toksikomanlik kabi illatlardan baholi qudrat qutulishimiz mumkin.

**Alijon FAIROV,**  
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi  
akademigi, Sog‘liqni saqlash a‘lochisi,  
**Qutbiddin NIZOMOV,**  
Turon xalq yozuvchisi, Sog‘liqni saqlash  
a‘lochisi



## IZLANUVCHAN QIZNING YUTUQLARI

**Dilbar Yaxshiboyeva  
Toshkent tibbiyot  
akademiyasining 3-bosqichida  
ta'lim olmoqda. O'tgan uch  
yil davomida u mehnati va  
ishtiyogi tufayli ko'plab  
muvaffaqiyatlarga erishdi.**



O'qish mobaynida ko'plab xalqaro ilmiy konferensiyalarda tezis, maqola va ma'ruzalari bilan ishtirok etdi. Mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egalladi.

Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi professor-o'qituvchilari rahbarligida talabalar ilmiy jamiyatida "Neyron tarmoqlardan foydalangan holda tibbiy kasalliklarni oldindan prognoz qilish" mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Shu mavzu bo'yicha ikki yil davomida talabalar ilmiy konferensiyalarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Mahalliy va xorijiy konferensiyalarda 6 tezis, jurnallarda 9 maqola chop ettirdi.

Hozir intiluvchan talabamiz ilmiy rahbarlari boshchiligida "Birlamchi diagnostika uchun "SALIVA" aparat-dasturiy kompleksi" hamda "Tibbiyotda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish" mavzulari bo'yicha izlanish olib bormoqda.

Bu yil akademiyamiz tomonidan o'tkazilgan "Zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolari" yoshlar xalqaro anjumanida "Birlamchi diagnostika uchun "SALIVA" aparat-dasturiy kompleksi" nomli ma'ruza bilan ishtirok etib, 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, Qozog'istonning Ostona tibbiyot universitetida bo'lib o'tgan "Tengdoshlar orasida birinchi" xalqaro olimpiadasida fiziologiya fanidan 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Dilbar Yaxshiboyeva Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan ta'sis etilgan nomdor stipendiyalar konkursida ishtirok etib, akademik Komiljon Zufarov nomidagi stipendiya sohibasi bo'ldi. Bundan tashqari, akademiyamiz o'tkazgan "Ibn Sino izdoshlari" yosh olimlar anjumanlari va boshqa turli konferensiyalarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarga munosib ko'rildi.

Intiluvchan talabamiz sog'liqni saqlash sohasida diagnostika uchun transfer ta'lim usullari asosida grafik ob'ektlarni aniqlash modellarini ishlab chiqish ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Albatta, bunday yutuqlarga erishish Dilbar uchun oson kechmadi. Yutuqlari ortida ulkan mehnat va tirishqoqlik, ustozlarining sa'y-harakati yetibdi.

U.ABDUJABBOROVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi katta o'qituvchisi



## O'ZLIGIMGA JO BO'LGAN MILLIYLIGIM

**O'zlikni anglash inson kamolotining  
asosiy negizidir. Yer sayyorasidagi har bir  
mamlakatning gullab-yashnashi, undagi  
totuvlik avvalo to'g'ri tarbiya va qadriyatlarga  
hurmat asosida shakllanadi.**

O'zining takrorlanmas qadriyatlariga ega ezgulikka yo'grilgan an'analari, urf-odatlari boy tariximiz asrlar silsilasida toblangan va rivojlangan. Millatimizning betakror an'analari negizida go'zal tarbiya, chin insoniylik sifatleri, komillik g'oyalari asnosida mujassamdir. Azal-azaldan Zardushtning "Avesto" asarida qadim o'zlikni anglash, insoniy sifatlar tarannumi aks etgan bo'lsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarlarida inson kamolotida tarbiya sifatleri vatanparvarlik, uyat, andisha, or-nomus, xushmuomalalik, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi insoniy fazilatlar tarannumi bayon etiladi. Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Alisher Navoiyning shoh asarlarida ham qadim tarixning jilvador navolari, o'zlikni tarannum qiluvchi bosh g'oyalar ifodasi yaqqol namoyon bo'ladi. Qadimiy boy ma'naviy merosni saqlash, milliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu munosabat bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi akademik litseyida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 18 oktabr 466-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida Milliy qadriyatlar kuni munosib tarzda nishonlandi. Mil-

liy an'analar, qadimiy urf-odatlarga yo'grilgan "O'zligimda jo bo'lgan milliylikim" shiori ostida bo'lib o'tgan yoshlar festivalida "Milliy raqs", "Milliy dasturxon", "Milliy libos", "Milliy sport" tantovlari bo'lib o'tdi. "Buvijonim o'g'itlari" mavzusi ostidagi davra suhbatlari o'sib kelayotgan yosh avlodni urf-odatlarga sodiqlik, milliy o'zlikni anglashga qaratilganligi shu bilan birgalikda oila bag'rida, mahalla ostonasida shakllanib kamol topgan ajdodlardan meros bo'lgan qadriyatlarining beshigi sifatida talqin etildi.

Bugungi kun o'quvchi yoshlarga chinakam o'zlikni anglash, qadriyatlariga hurmat, an'ana va urf-odatlarga ehtirom ruhini shakllantirishga turtki bo'la oldi.

"O'zligimda jo bo'lgan milliylikim" shiori ostida tantanali yoshlar festivali o'tkazishdan maqsad milliy o'zlikni anglash, an'ana va qadriyatlarga hurmat bajo keltirish shu bilan birga yosh avlodga qadimiy va betakror millatimizning insoniy fazilatlariga yo'grilgan o'zligini tanishtirishdan iborat bo'ldi. O'zbekning asl san'ati, o'chmas qadriyatleri asrlar davomida barhayotdir.

Nigora HAKIMOVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi  
akademik litseyi Yoshlar masalalari  
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha  
direktor o'rinbosari



## KITOB O'RNINI NIMA BOSA OLADI? YOKI TOTAL SAVODSIZLIK DAVRI BOSHLANDIMI?

**1978 yilda Angliyada lingvistlarning 1-Umumjahon s'ezdi bo'lib o'tgan. Unda "insoniyat tarixidagi eng ulkan ixtiro yoki kashfiyotni ko'rsating!" degan savolnoma bo'lgan.**

Shunda mazkur qurultoyga jahonning 136 mamlakatidan tashrif buyurgan 312 nafar olimning 176 nafari, ya'ni 56,5 foiz qismi "1446 yilda Olmoniyada Gutenberg tomonidan kitobning tipografiya usulida chop etilishidir" deb javob berishgan. E'tibor bering, ular inson oyog'ining oyga yetishi emas, atom bombasining ixtirosi, poroxning yaratilishi emas, balki aynan kitobning tipografiya usulida chop etilishi, deb e'tirof etmoqda. Demak, inson taraqqiyotida tamaddunida kitobning o'rnini bosa oladigan narsa kam ekan. Ana shu kechmish 600 yilga yaqin muddat mobaynida adadi bir milliarddan oshgan kitoblar ichida Bibliya va Qur'oni karim bor.



Uzoq yillar kitob umrimizning mohiyatiga aylanib uylarimiz to'ridan joy oldi. Bamisoli oftobdek hayot yo'llarimizning yoritib, mayoq singari kelajak manzillarimizni belgilab berdi. Men bir umr kitob yig'dim. Shaxsiy kutubxonamda 35 mingga yaqin turli til, turli mavzularda bitilgan kitoblar bor. O'zim 86 ta kitob chop etdim va hanuzgacha bu savobli ishda bardavomman. Ammo oxirgi yillarda kitobning o'rni ikkinchi qatorga surilib, mavqei biroz kamaydi nazarimda. Bunga bir qancha ob'ektiv va sub'ektiv sabablar bor, nazarimda. Oxirgi yillarda raqamli texnologiyalar kuchayib, namoyish materiallarining tele-audio nusxalari ommalashdi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, avvalgi rahbarlardan biri "Talabalar qoloqlarga o'xshab kitob ko'tarib yurmasin, u o'tgan asrning qoldig'i. Hammasi noutbuk, netbuk yoxud planshet ko'tarib kelsin. Shularni olib kelmagan talabalarni mashg'ulotlarga qo'y manglar!", qabilida ilmiy jihatdan hech bir asoslanmagan buyruq ham chiqardi. Biz bir necha yillar ana shu dumi xurjunda bo'lgan ahmoqona buyruq asosida ishladik. Kitob ko'targan talabalarni kamsitib, noutbuk, netbuk ko'tarib kelgan talabalarni ularga o'rnak qilib ko'rsatdik. Darvoqe, bunga majbur edik.

Xo'sh, oqibat nima bo'ldi? Bugungi kunda ana shu inersiya oqibatida birorta talaba darsga kitob ko'tarib kelmay qo'ydiki. Yozishni-ku, butunlay yig'ishtirishdi. Hatto, tematik reja va ko'rsatmalarni ham zamon talabi, deb telefoniga rasmga tushirib qo'ya qolmoqdalar. O'qimaslik, talaffuz qilmaslik oqibatida, test yechish oqibatida bo'lg'usi

shifokorlarda nutq madaniyati, muloqot san'ati, muomala udumlari butunlay so'ndi. Tibbiy deontologiya, kasb etikasi, bioergonomika, psixologiya, falsafa unutildi. Bu esa so'nggi yillarda shifokorlarni aholi tomonidan kaltaklanishi va haqoratlanishiga sabab bo'lmoqda. Bunisiyam mayli, total savodsizlik davri boshlandi. Hozir talabalardan husnixat u yoqda tursin, insho yoki diktant yozdiradigan bo'lsang, 90 foizdan ortig'i uch baho ololmasligi ham aniq. Bunisiyam mayli, taraqqiyotimizning noxolislar tomonidan lotin grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvining kiritilishi, uni o'ttiz yil mobaynida to'rt marta isloh qilinishi, q, g', h, o' kabi ayrim harflar borasida hanuz bir xulosaga kelinmaganligi ahvolni battar jiddiylashtirdi. Bugun biz xato yo'l tutganimiz, kirill imlosiga qaytishimiz afzalligi to'g'risida juda ko'p tilshunos, filolog olimlarimiz, shoir yozuvchilarimiz bong urmoqda. Mening shaxsiy fikrim ham shunday.

Hech qanday elektron darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy ko'rsatma, metodik tavsiyalar yaxshi darslikni o'rnini bosa olmaydi. Personal kompyuter, noutbuk, netbuk, planshet ikki dunyoda ham yaxshi darslikka muqobil bo'la olmaydi. Ularni alternativ ko'rishning o'zi hamoqatdir. Bu haqiqatni tushunish uchun unchalik aqlli bo'lish shart emas. Rahbarlarimiz buni tushunib yetishlari kerak deb o'ylayman. Vaqtimiz borida kitoblarga qaytaylik.

**Alijon ZOHIDIY,**  
Turon xalq yozuvchisi, Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi akademigi, Respublika Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a'zosi



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2023 yil noyabr)

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	Oftalmologiya	dotsent – 1,0
2.	Oftalmologiya	assistent – 1,0
3.	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi	assistent – 1,0
4.	Normal va patologik fiziologiya	assistent – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
1.	Odam anatomiyasi va OXTA	assistent – 1,0
2.	Tibbiy radiologiya	assistent – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
1.	Atrof-muhit gigiyenasi	assistent – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMX fakulteti</b>		
1.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent – 1,0
2.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistent – 1,0
<b>Xalqaro fakulteti</b>		
1.	Tibbiy va biologik kimyo	assistent – 1,0

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.  
Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi Bolalar kasalliklari kafedrasida dotsenti, mehnat faxriysi

**Shuxrat Bositovich TURSUNOVning**

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RISOGRAFida  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun ma'sul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir  
Bepul tarqatiladi